

GLOBAL TIL SIYOSATIDA INGLIZ, ISPAN VA O‘ZBEK TILLARI: SOFT POWER VA KELAJAK STRATEGIYALARI

Laziz Rahmatov,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
siyosiy fanlari doktori (PhD)

Dilrabo Baxronova,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

<https://orcid.org/0000-0002-2012-7426>

dbaxronova@uzswlu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada global til siyosati doirasida ingliz, ispan va o‘zbek tillarining funksional, lingvokulturologik hamda geosiyosiy xususiyatlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda tillarning de facto maqomi, uning yumshoq kuch (soft power) va qattiq kuch (hard power) instrumenti sifatidagi o‘rni nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Ingliz tilining global lingua franca sifatidagi ustunligi, ispan tilining madaniy ekspansiya orqali ta’sir o‘tkazish modeli hamda o‘zbek tilining milliy-madaniy o‘zlikni shakllantirish va mustahkamlashdagi roli qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil asosida o‘rganiladi.

Maqolada zamonaviy lingvistik va siyosiy nazariyalar, xususan, til va kuch o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, global kommunikatsiya tizimlari va ko‘p tillilik tendensiyalari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va ispan tillarining xalqaro tajribasi asosida o‘zbek tilini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari til siyosatini takomillashtirish, madaniy diplomatiyani rivojlantirish hamda global kommunikativ makonda milliy tillarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

***Kalit so‘zlar:** til siyosati, de facto til, yumshoq kuch, qattiq kuch, global kommunikatsiya, ko‘p tillilik*

ENGLISH, SPANISH, AND UZBEK IN GLOBAL LANGUAGE POLICY: SOFT POWER AND FUTURE STRATEGIES

Laziz Rakhmatov,

University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Political Sciences

Dilrabo Bakhronova,

Professor at the Uzbekistan State World Languages University, Doctor of
Philological Sciences

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of English, Spanish, and Uzbek within the framework of global language policy, examining their functional, linguocultural, and geopolitical characteristics. The study explores the concept of de facto language status and investigates the role of language as an instrument of both soft power and hard power in contemporary global dynamics. A comparative perspective is applied to analyze the dominance of English as a global lingua franca, the cultural expansion model of Spanish, and the role of Uzbek in shaping and reinforcing national identity.

The research draws upon contemporary linguistic and political theories to examine the interrelationship between language and power, global communication systems, and emerging multilingual trends. Furthermore, the study identifies strategic directions for the development of the Uzbek language based on international experiences of English and Spanish. The findings contribute to the advancement of language policy, cultural diplomacy, and the enhancement of the global competitiveness of national languages within the international communicative space.

Keywords: *language policy, de facto language, soft power, hard power, global communication, multilingualism*

АНГЛИЙСКИЙ, ИСПАНСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ В ГЛОБАЛЬНОЙ ЯЗЫКОВОЙ ПОЛИТИКЕ: МЯГКАЯ СИЛА И СТРАТЕГИИ БУДУЩЕГО

Лазиз Рахматов,

Университет мировой экономики и дипломатии, доктор политических наук

Дилрабо Бахронова,

профессор Узбекского государственного университета мировых языков,

доктор филологических наук

<https://orcid.org/0000-0002-2012-7426>

dbaxronova@uzswlu.uz

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится комплексный анализ английского, испанского и узбекского языков в контексте глобальной языковой политики с учетом их функциональных, лингвокультурных и геополитических особенностей. Особое внимание уделяется понятию де-факто языка, а также роли языка как инструмента мягкой силы (soft power) и жесткой силы (hard power) в современных международных процессах. В работе на основе сравнительного подхода рассматриваются доминирующее положение английского языка как

глобальной лингва франка, модель культурной экспансии испанского языка и значение узбекского языка в формировании национальной идентичности.

В исследовании используются современные лингвистические и политические концепции, раскрывающие взаимосвязь языка и власти, особенности глобальных коммуникационных систем и тенденции многоязычия. Кроме того, на основе международного опыта развития английского и испанского языков предлагаются стратегические направления развития узбекского языка. Полученные результаты способствуют совершенствованию языковой политики, развитию культурной дипломатии и повышению конкурентоспособности национальных языков в глобальном коммуникативном пространстве.

Ключевые слова: языковая политика, де-факто язык, мягкая сила, жесткая сила, глобальная коммуникация, многоязычие

KIRISH

Globalashuv, raqamli transformatsiya va geosiyosiy qayta taqsimlanish jarayonlari fonida til siyosati davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etuvchi ustuvor yo‘nalishga aylandi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda til endilikda faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy kapital, geosiyosiy resurs va ideologik ta’sir instrumenti sifatida talqin qilinmoqda (Phillipson, 1992; Bourdieu, 1991; Baxronova, 2021b). Shu nuqtai nazardan sir emaski, til global maydonda bilim ishlab chiqarish, madaniy gegemoniyani shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda 7000 dan ortiq til mavjud bo‘lib, ularning 40% dan ortig‘i yo‘qolib borayotgan tillardir. Biroq ba’zi tillar, xususan, ingliz tilining global ustunligi XXI asrda yanada mustahkamlanib, bu til ilm-fan, texnologiya, biznes va diplomatiya sohalarida *de facto xalqaro lingua franca* maqomiga ega bo‘ldi (Crystal, 2003; Graddol, 2006; Baxronova, 2022a). Raqamli kommunikatsiya platformalari, sun’iy intellekt tizimlari va ilmiy nashrlarning asosiy qismi ingliz tilida faoliyat yuritishi ushbu tilning global bilim iqtisodiyotidagi yetakchi rolini kuchaytirdi. Biroq bu jarayon til xilma-xilligining qisqarishi, lingvistik tengsizlik va “til imperiyasi” kabi muammolarni ham yuzaga keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, boshqa tillar ham global makonda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga faol harakat qilmoqda. Ispan tili, xususan, Lotin Amerikasi va Yevropa madaniy makonida *madaniy soft power* vositasi sifatida jadal kengayib, musiqa, kino, ta’lim va ommaviy axborot vositalari orqali global auditoriyani qamrab

olmoqda (Mar-Molinero, 2000; Del Valle, 2013). Bu jarayon tilning madaniy ekspansiya orqali ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini namoyon etadi.

O'zbek tili ravnaqida esa mustaqillikdan keyingi ilk davrda *milliy-madaniy o'zlikni* tiklash, davlat suverenitetini mustahkamlash va madaniy merosni qayta baholash jarayonlariga katta e'tibor berildi. Hozirgi bosqichda o'zbek tili siyosatida e'tibor bir tomondan milliy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan global kommunikativ makonga integratsiyalashuv zarurati bilan kurashmoqda. Keyingi yillarda jahonning qator ta'lim muassasalarida o'zbek tilining o'qitilishi, jahon nufuzli tashkilotlari arenasida nutqlarning o'zbek tilida yangrashi kabilarni global til makonidagi ijobiy o'zgarishlar sifatida misol keltirish mumkin¹. Bu esa o'zbek tilini rivojlantirishni milliy-madaniy o'zlik va global raqobatbardoshlik o'rtasidagi muvozanat nuqtai nazaridan ko'rib chiqilayotganligini anglatadi.

Mazkur maqolada aynan shu murakkab o'zaro aloqalar tahlil qilinib, unda ingliz, ispan va o'zbek tillarining global til siyosatidagi o'rni *de facto maqom*, *soft power* va *hard power konsepsiyalari* asosida o'rganildi, tillar nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki strategik resurs va global ta'sir mexanizmi sifatida ulkan ahamiyatga egaligi kompleks tahlil qilindi, shuningdek, zamonaviy til siyosati nazariyasiga yangi yondashuv asosida nazar solindi. Ilmiy muammoning dolzarbligi ko'rib chiqilayotgan masalalardan milliy tillarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

METODOLOGIYA.

Zamonaviy til siyosatini tahlil qilishda tilning rasmiy maqomi bilan cheklanib qolish yetarli emas. Tilning haqiqiy ta'siri uning amaliy qo'llanish darajasi, kommunikativ ustunligi va geosiyosiy funksiyalari orqali belgilanadi. Shu sababli *de facto til*, *soft power* va *hard power* tushunchalariga tilning global tizimdagi o'rnini tushuntirishda muhim nazariy kategoriyalar sifatida qaraladi. Quyida ushbu tushunchalarga berilgan ta'riflarni o'rganib izohlar keltirildi.

De facto til tushunchasi. De facto til, bu rasmiy maqomidan qat'i nazar, amalda hukmron bo'lgan va keng qo'llaniladigan til bo'lib, u global kommunikatsiya tizimini shakllantiradi. "De facto" lotincha so'z bo'lib, "amalda", "real holatda" degan ma'noni anglatadi, bunda til rasmiy maqomga ega bo'lmasligi mumkin, lekin amalda keng qo'llaniladi. Ingliz tili ko'plab davlatlarda rasmiy til emas, lekin global de facto til sifatida tan olinadi. D.Graddolning (2006) ta'kidicha, ingliz tili global miqyosda aynan shunday maqomga ega tildir, u xalqaro aloqalarda "tabiiy tanlangan til"ga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/385>; Saida Mirziyoyeva Oksfordda o'zbek tilini o'rganish dasturining ochilish marosimida ishtirok etdi. https://uza.uz/uz/posts/saida-mirziyoyeva-oksfordda-ozbek-tilini-organish-dasturining-ochilish-marosimida-ishtirok-etdi_771480

aylanib ulgurdi. D.Kristal (2003) esa ingliz tilining global ustunligini uning siyosiy, iqtisodiy va texnologik markazlar bilan bog‘liqligi orqali izohlaydi. S.Montgomeri (2013) fikricha, ilmiy bilim ishlab chiqarish tizimi ingliz tiliga qattiq bog‘langan bo‘lib, bu holat boshqa tillarning ilmiy maydondagi imkoniyatlarini cheklamoqda. Shu nuqtai nazardan, de facto til fenomeni nafaqat kommunikativ ustunlikni, balki bilim va axborot ustidan nazoratni ham bildiradi.

Yevropa Ittifoqi misolida ham ko‘p tillilik siyosati mavjud bo‘lishiga qaramay, ingliz tili amalda asosiy ishchi til sifatida qo‘llanilishi *de facto til konsepsiyasining* real ifodasidir (Phillipson, 2003). Umuman olganda, bu tushuncha tilning huquqiy maqomidan ko‘ra real funksional ustunligini ko‘rsatadi.

2.2. “Lingua franca” termini. Bu birikma lotincha “lingua” – til va “franca” – “erkin”, “umumiy” so‘zlaridan kelib chiqqan, o‘rta asrlarda O‘rta yer dengizida savdo tili sifatida ishlatilgan tilga nisbatan qo‘llangan. Lingua franca turli millat vakillari o‘zaro muloqot qilish uchun ishlatadigan umumiy tildir. Bugungi kunda *global lingua franca* deyilganda ham ingliz tili tushuniladi. Bu konsept tilning xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatidagi rolini ifodalaydi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham yoshlarning asosan ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotganligi bu tilning *de facto yoki lingua franca* xususiyatlari tobora mustahkamlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

2.3. Soft power va til. Inglizcha “soft” (yumshoq), “power” (kuch) so‘zlaridan yasalgan bu termin Josef Nay tomonidan 1990-yillarda ilmiy muomalaga kiritildi. J. Nay tomonidan ishlab chiqilgan *soft power* konsepsiyasi davlatlarning majburlashsiz, balki jalb qilish orqali ta’sir o‘tkazish qobiliyatini anglatadi. Til bu jarayonda asosiy vosita bo‘lib, u madaniyat, qadriyat va g‘oyalarni global miqyosda tarqatadi. S.Hall (1997) tilni madaniy ma’no ishlab chiqarish tizimi sifatida talqin qilib, u orqali o‘zlik va tasavvurlar shakllanishini ta’kidlaydi. Shu jihatdan ingliz tili global media va ilm-fan orqali soft powerning eng kuchli instrumentiga aylandi. Hollywood kino industriyasi, global ilmiy jurnallar va internet platformalari kabilar ingliz tilini universal madaniy kodga aylantirdi.

Ispan tili esa soft powerning madaniy modelini namoyon etmoqda. K.Mar-Molinero (2000) fikricha, ispan tilining kengayishi uning madaniy jozibadorligi va tarixiy merosi bilan bog‘liq. X.Del Valle (2013) esa til siyosatini “milliy o‘zlikni boshqarish vositasi” sifatida izohlab, ispan tilining global tarqalishini madaniy strategiya bilan bog‘laydi.

O‘zbek tilida esa soft power ko‘proq milliy qadriyatlar va lingvokulturologik tizim orqali namoyon bo‘ladi. F.Sharifianning (2017) fikricha, til madaniy konseptlarni kodlaydi va shu orqali ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiradi. Masalan,

o‘zbek taomlari, urf-odat va kiyimlari, shu bilan birga o‘zbek tilidagi mehmondo‘stlikka oid iboralar va kommunikativ strategiyalar turizm diskursida ijobiy milliy imidj yaratishga xizmat qilmoqda. D.Baxronovning (2022a) qayd etishicha, butun dunyo ta‘lim tizimi auditoriyasi uchun internet tarmog‘i allaqachon eng asosiy axborot manbasiga aylanib ulgurgan. Bugungi globallashuv zamonida til o‘rganishga xizmat qiluvchi ma‘lumotlar bilan birgalikda tahlilchilar tomonidan alohida e‘tibor qaratilayotgan “Til o‘rganishning siyosiy jihatlari”ga doir ilmiy tadqiqotlar va ularning aynan dunyoning qator rivojlangan mamlakatlar tahlilchilari tomonidan olib borilayotganligi o‘rganilayotgan mavzumizning dolzarblik darajasini yana bir bor namoyish qiladi.

2.4. Hard power va til. Hard power inglizcha “hard” qattiq, majburiy, “power” kuch so‘zlaridan yasalgan termin bo‘lib, majburlash, bosim yoki kuch orqali ta‘sir o‘tkazishni ifodalaydi. Bunda siyosiy qarorlar, harbiy kuch, majburiy ta‘lim kabilar asosiy vosita rolini bajaradi. Ayniqsa, mustamlaka davrida tilni koloniyalarda majburan joriy etish kabilar tarixda ko‘p kuzatiladi. Masalan, o‘tmishdan ma‘lumki, ingliz, ispan kabi tillarning keng tarqalishi kolonial ekspansiya natijasi bo‘lgan. Bu esa tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki geosiyosiy dominant vosita sifatida ko‘rsatadi (Pennycook, 1998). Hard power odatda siyosiy va iqtisodiy majburlash bilan bog‘liq bo‘lsa-da, til siyosatida ham muhim o‘rin tutadi. R.Fillipson (1992) ham ingliz tilining global tarqalishini “lingvistik imperializm” tushunchasi orqali izohlab, uni tarixiy kolonial siyosat bilan bog‘laydi. Bu jarayonda til hokimiyat va nazorat instrumentiga aylana borgan.

Kuzatishlarimiz, zamonaviy davrda *hard power til siyosati* davlat ichida quyidagicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi: a) davlat tilini majburiy joriy etish; b) ta‘lim tizimida tilni standartlashtirish; c) ayrim tillarning funksional doirasini cheklash. Bu siyosiy qarorlar orqali davlatlar milliy o‘zligini saqlab qolish, davlat (ona) tili maqomini ko‘tarish kabi g‘oyalarni maqsad qiladilar.

P.Bourdieu (1991) tilni “ramziy kapital” sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy kuch va ierarxiyani shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, til siyosati orqali jamiyatda ustun va past maqomli tillar shakllanishi mumkin.

Bugungi global tizimda hard power va soft power o‘zaro integratsiyalashib bormoqda. Masalan, ingliz tilining dastlabki tarqalishi siyosiy va iqtisodiy kuch bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda u asosan soft power mexanizmlari orqali mustahkamlanmoqda. Bu esa til siyosatini dayriylashtirganda kompleks va ko‘p qatlamli fenomen sifatida o‘rganishni talab qiladi.

3. Ingliz tili: global lingua franca. Zamonaviy global kommunikatsiya makonida yuqorida ta‘kidlanganidek ingliz tili *lingua franca* sifatida mutlaq

ustunlikka egadir, u keyingi ikki asrda xalqaro muloqotning universal vositasiga aylanib ulgurdi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, ingliz tilidan foydalanuvchilar soni 1,5 milliarddan ortiq bo'lib, bu uning global miqyosdagi aloqa salohiyatini yaqqol namoyon etadi (Crystal, 2003; Graddol, 2006). S.Montgomerining (2013) ta'kidicha, zamonaviy ilmiy maqolalarning asosiy qismi ingliz tilida e'lon qilinib, bu ilmiy bilim ishlab chiqarish tizimi va global akademik diskursda ingliz tilining hukmronligini ko'rsatadi.

S.Hjarvard fikricha, ingliz tilining ustunligi uning bir nechta strategik afzalliklari bilan izohlanadi. Birinchidan, u global bilim tili sifatida ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni uzatishning asosiy vositasidir. Ikkinchidan, ingliz tili global iqtisodiyot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, xalqaro biznes, moliya va diplomatiya sohalarida ustuvor mavqega ega. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt tizimlarining aksariyati ingliz tiliga asoslangan bo'lib, bu uni texnologiyada ham dominant til funksiyasini mustahkamlamoqda (Hjarvard, 2013).

Biroq, ingliz tilining global ustunligi bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. R.Fillipson (1992) bu jarayonni "lingvistik imperializm" sifatida talqin qilib, ingliz tilining boshqa tillar hisobiga kengayishini tanqid qiladi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilining gegemonligi ko'p hollarda boshqa tillarning marginallasuviga² va lingvistik xilma-xillikning qisqarishiga olib kelmoqda. A.Pennikuk (1998) ham ingliz tilining global tarqalishini kolonial tarix va ideologik diskurslar bilan bog'lab, uning neytral emasligini ta'kidlaydi.

Kelajak nuqtai nazaridan ingliz tili bir xil standart shaklda emas, balki turli regional variantlarda rivojlanmoqda. B.Kachru (1992) tomonidan ilgari surilgan "World Englishes" konsepsiyasiga ko'ra, ingliz tili turli madaniy kontekstlarda moslashib, ko'p markazli tizimga aylanmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, mashina tarjimasini va raqamli kommunikatsiya texnologiyalari ingliz tilining rolini qayta shakllantirishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar kelajakda ingliz tilining ustunligi saqlanib qolishini, ammo uning shakli va funksiyasi transformatsiyaga uchrashini ta'kidlab o'tgan (Graddol, 2006).

4. Ispan tili: madaniy soft power va lingvistik ekspansiya modeli. Ispan tili global til tizimida o'ziga xos o'ringa ega, uning ko'rsatkichlari ispan tilining nafaqat demografik, balki madaniy va kommunikativ salohiyatini ham aks ettiradi. Geografik omil ham muhim tafovutlarni belgilaydi, masalan: hind va xitoy (mandarin) tillari asosan o'z davlatlari hududida ona tili sifatida qo'llanilsa, ispan tili geografik

² "Marginallasuv" so'zi lotincha "margo, marginis" dan kelib chiqib, ma'nosi "chekka", "chegaraviy qism", "yon tomon" deganidir. Bu termin shaxs, guruh yoki tilning ijtimoiy, madaniy yoki kommunikativ tizimda markaziy o'rindan chetga surilib qolish jarayonini bildiradi.

jihatdan xalqaro ona til hisoblanadi (Yevropa, Amerika va Afrikaning 21 ta davlatida). Ingliz tili esa bundan ham kengroq miqyosda tarqalgan bo‘lib, u 57 davlat va Yevropa, Amerika, Afrika, Osiyo hamda Okeaniyadagi 28 ta suveren hududda qo‘llaniladi (Instituto Cervantes, 2025).

Ispan tilining global ta‘siri asosan *soft power* mexanizmlari orqali amalga oshadi. J.Nay (2004) konsepsiyasiga muvofiq, ispan tili madaniyat, san‘at va ta‘lim orqali xalqaro auditoriyani jalb qiladi. Xususan, Lotin Amerikasi musiqasi, ispan tilidagi kino va seriallar (“La casa de papel” kabi), shuningdek, gastronomiya va turizm ispan tilining global ommalashuviga katta hissa qo‘shmoqda. Bu jarayon tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniy o‘zlik va jozibadorlik belgisi sifatida shakllantirgan. Masalan, paella, jamón, gazpacho, arquitectura, playas, flamenco va b.

K.Mar-Molinero (2000) ta‘kidicha, ispan til siyosati asosan milliy madaniyatini eksport qilish orqali amalga oshiriladi. X.Del Valle (2013) esa ispan tilining global kengayishini siyosiy va madaniy strategiya sifatida talqin qilib, uni “til orqali ispan milliy o‘zligini qurish va boshqarish vositasi” deb baholaydi. Shu jihatdan, ispan tili ingliz tilidan farqli ravishda ko‘proq madaniy joziba va ijtimoiy ta‘sir orqali kengayib bormoqda.

Ispan tilining yana bir muhim xususiyati uning ko‘p markazli rivojlanish modelidir. Turli mamlakatlarda mavjud bo‘lgan variantlar tilning moslashuvchanligi va global tizimga integratsiya qobiliyatini oshiradi (Moreno Fernández, 2009). Bu esa uni global kommunikatsiya uchun barqaror va dinamik tilga aylantiradi.

Umuman olganda, til siyosatida ispan tili ingliz tilidan farqli ravishda *hard power*ga moyillikda emas, balki *madaniy soft power* orqali global ta‘sir o‘tkazishning muvaffaqiyatli modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu model o‘zbek tili kabi rivojlanayotgan tillar uchun muhim tajriba manbai bo‘lishi mumkin.

5. O‘zbek tili: milliy-madaniy o‘zlik va global integratsiya. O‘zbek tilining zamonaviy rivojlanish trayektoriyasi post-sovet makonidagi til siyosatining umumiy tendensiyalari bilan uzviy bog‘liq rivojlandi, u milliy o‘zlikni tiklash, davlat suverenitetini mustahkamlash va madaniy merosni qayta anglash jarayonlari bilan chambarchas uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi nafaqat huquqiy, balki ramziy va ideologik ahamiyatga ega qaror bo‘ldi. Bu jarayon tilni milliy o‘zlikni ifodalovchi asosiy belgilardan biriga aylantirdi.

X.Landau va B.Kellner-Heinkele (2001) Markaziy Osiyo davlatlarida til siyosati milliy o‘zlikni shakllantirishning asosiy instrumenti ekanini ta‘kidlaydi. Ularning fikricha, til siyosati orqali davlatlar o‘z tarixiy xotirasini tiklaydi va yangi ijtimoiy-iqtisodiy modelni legitimlashtiradi. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki,

o‘zbek tili nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy diskursni qurish vositasi sifatida faol qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy til siyosatida o‘zbek tilining rivoji bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: davlat boshqaruvi va ta‘lim tizimida ustuvorligini mustahkamlash, imlo va terminologik islohotlar, shuningdek, tilni raqamli muhitga moslashtirish. Bugungi kunda A.Sharipova, N.Ibragimova, N.Abdurahmonova, F.Muratxodjayeva kabi olimlar o‘zbek tilini raqamlashtirish doirasida sezilarli ish olib bormoqdalar. P.Bourdieu (1991) tilni “ramziy kapital” sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy nufuz va hokimiyatni taqsimlashdagi rolini ko‘rsatadi. Shu ma‘noda, o‘zbek tilining davlat darajasida mustahkamlanishi uning ijtimoiy kapital sifatidagi qiymatini oshiradi. Shunday bo‘lsa-da, ta‘kidlash kerakki, o‘zbek tilining global integratsiya jarayonida bir qator muammolar mavjud. *Birinchi*dan, u global ilmiy maydonda hali yetarlicha vakillikka ega emas. S.Montgomeri (2013) fikricha, ilmiy diskursning ingliz tiliga qattiq bog‘liqligi kichik va rivojlanayotgan tillarning ilmiy ko‘rinishini cheklaydi. *Ikkinchi*dan, tarjima siyosatining yetarlicha rivojlanmaganligi o‘zbek tilidagi ilmiy va madaniy kontentning global aylanishini cheklaydi, xususan o‘zbek tilidan boshqa global tillarga sifatli tarjimaning mavjud emasligi bu sohadagi muammolarni jadal hal qilish kerakligini ko‘rsatadi (Baxronova, 2023). *Uchinchi*dan, raqamli platformalarda o‘zbek tilining ulushi nisbatan past bo‘lib, bu uning global kommunikativ tizimdagi ishtirokini kamaytiradi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilining rivoji uchun muhim imkoniyatlar ham mavjud. Turizm sohasi o‘zbek tilining lingvokulturologik boyligini global auditoriyaga yetkazish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkinligini isbotlamoqda. O‘zbekistonning tarixiy shaharlari va madaniy merosi til orqali ifodalangan holda, turizm diskursida ijobiy milliy imidj yaratadi. Digital media va ijtimoiy tarmoqlar esa o‘zbek tilining global ko‘rinishini oshirish uchun yangi platformalar yaratmoqda. Fikrimizcha, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek milliyligini yaqqol namoyon etadigan kontentlardan foydalanish kabi chellenglarni yo‘lga qo‘yish global maydonda nafaqat O‘zbekiston imidji, balki o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishni ham kuchaytiradi.

Madaniy diplomatiya ham o‘zbek tilining soft power instrumentiga aylanishida muhim rol o‘ynaydi. J.Nay (2004) ta‘kidlaganidek, madaniyat va til orqali ta‘sir o‘tkazish uzoq muddatli va barqaror natija beradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tilining rivojlanishi milliy-madaniy o‘zlikni saqlash va global kommunikativ tizimga integratsiya qilish o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi.

N.Mahmudov (2012) ta‘kidlashicha, til milliy tafakkurning asosiy shakli bo‘lib, u xalqning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Uning fikricha, tilni

rivojlantirish faqat lingvistik masala emas, balki milliy o‘zlikni saqlash va uni zamonaviy sharoitda qayta talqin qilish jarayonidir.

D.Baxronova (2021) esa til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilib, tilni madaniy kodlar va ijtimoiy qadriyatlar tizimini uzatuvchi vosita sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlarida til globalizatsiya sharoitida transformatsiyaga uchrashi, biroq o‘zining milliy asoslarini saqlab qolishi zarurligi alohida ta’kidlanadi. Bu yondashuv o‘zbek tilining global integratsiya jarayonida identitetni yo‘qotmasdan rivojlanishi uchun muhim nazariy asos yaratadi. S.Montgomeri (2013) ilmiy diskursning ingliz tiliga bog‘liqligini ta’kidlab, kichik tillarning global ilmiy tizimda marginal holatda qolishini qayd etadi. D.Baxronova va S.Abduraimov (2022) esa metafora va madaniy tasavvurlar orqali milliy tafakkur shakllanishini o‘rganib, o‘zbek tilining ilmiy potensialini kengaytirish zarurligini asoslaydi.

D.Baxronova (2022a) ta’kidicha, til o‘rganish jarayonida ayrim g‘oyaviy institutlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlar “yumshoq kuch” siyosati doirasida namoyon bo‘ladigan noxush hodisalardan biri sifatida e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Shu nuqtai nazardan, lisoniy “yumshoq kuch” strategiyasida maqsadlarning aniq belgilanishi, uning asosiy yo‘nalishini faqat til siyosati bilan cheklash va siyosiy-diniy-ideologik omillardan xoli holda amalga oshirilishi mazkur sohada ilgari surilayotgan loyihalarning barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

1-jadval. Qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil jadvali.

Mezoni	Ingliz tili	Ispan tili	O‘zbek tili
Status	Global lingua franca	Global/regional til	Milliy til
Kuch turi	Hard + Soft power	Soft power	Identitet + potensial soft power
Tarqalish	Juda keng	Keng	O‘rta
Asosiy strategiya	Dominant va standartlashgan	Madaniy ekspansiya	Rivojlanish va integratsiya
Raqamli mavjudlik	Juda yuqori	Yuqori	O‘sib bormoqda
Ilmiy diskursdagi o‘rni	Dominant	O‘rta	O‘rtadan past

Ushbu taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, tilning global muvaffaqiyati uning nafaqat tarqalishi, balki strategik boshqaruvi va madaniy jozibadorligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tilining kelajakda yanada taraqqiy etishi ingliz tilining global tajribasi va ispan tilining madaniy modeli o‘rtasidagi muvozanatni topishga bog‘liq.

8. Tilni rivojlantirish strategiyasi: milliy va global yondashuv sintezi.

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida til siyosatining samaradorligi uning ko'p qatlamli, tizimli va ilmiy asoslangan strategiyaga tayanishiga bog'liqdir. Tilni rivojlantirish bugungi kunda faqat lingvistik jarayon emas, balki bilim iqtisodiyoti, raqamli kommunikatsiya, madaniy diplomatiya va global raqobatbardoshlik bilan uzviy bog'liq kompleks jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ingliz va ispan tillari tajribasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, biroq o'zbek tilining rivoji bu modellarning mexanik takrorlanishini emas, balki milliy va global omillar sinteziga asoslangan integrativ o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Mazkur model quyidagi strategik komponentlarga asoslanishi mumkin: ilmiy nashrlar va akademik kommunikatsiyada ustunlikka erishish; raqamli platformalar va texnologik tizimlar orqali kengayishni kuchaytirish; global standartlashuv va terminologik unifikatsiyani amalga oshirish.

M.Kastellsning (2010) fikricha, tarmoq jamiyati sharoitida tilning ustunligi uning raqamli makondagi mavjudligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, ispan tilining rivojlanish modeli quyidagilarga asoslanadi: 1) global media va kreativ industriyalar (kino, musiqa, kontent); 2) tilni hayot tarzi va identitet elementi sifatida targ'ib qilish; 3) madaniy diplomatiya orqali global auditoriyani jalb qilish. Bu model tilni madaniy kapital va emotsional jozibadorlik orqali kengaytiradi, natijada u global kommunikativ tizimda barqaror o'rin egallaydi.

O'zbek tilining rivojlanishi uchun zamonaviy sharoitga mos, ilmiy asoslangan va uzoq muddatli strategiya zarur. Bu strategiya global tajribani o'zlashtirish bilan birga milliy lingvokulturologik xususiyatlarni saqlashga qaratilishi lozim. Shu asosda o'zbek tilini rivojlantirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar taklif etiladi:

1. Ilmiy diskursni kengaytirish. Tilning global mavqei uning ilmiy maydondagi ishtiroki bilan belgilanadi. O'zbek tilida ilmiy maqolalar, terminologik bazalar va akademik platformalarni rivojlantirish zarur.

2. Tarjima va bilim almashinuvi. Tarjima global kommunikatsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, u tilni xalqaro maydonga olib chiqadi. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lishi kerak: global bilimlarni o'zbek tiliga, milliy bilimlarni esa jahon tillariga. Buning uchun iqtidorli o'zbek ziyolilarini Angliya, AQSh, Ispaniya, Xitoy kabi davlatlarga tilni muakammal egallashi uchun maqsadli o'qishga yuborish masalasini ko'rib chiqish lozim.

3. Raqamli makonda tilni kengaytirish. M.Kastells (2010) ta'kidlaganidek, raqamli tarmoqlar global kommunikatsiyaning markaziga aylangan. O'zbek tilining internetdagi ulushini oshirish uning global ko'rinishini kuchaytiradi.

4. Sun'iy intellekt (SI) va NLP integratsiyasi. L.Floridi (2014) fikricha, kelajakda tilning raqobatbardoshligi uning SI tizimlariga integratsiyasi bilan belgilanadi. O'zbek tilini raqamli texnologiyalarga moslashtirish strategik zaruratdir.

5. Madaniy diplomatiya va lingvokulturologik kontent. D.Baxronova (2021) ta'kidlaganidek, til orqali madaniy qadriyatlarni uzatish global milliy imidjni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm, madaniyat va media orqali o'zbek tilining jozibadorligini oshirish mumkin.

6. Antropotsentrik yondashuv. Tilni rivojlantirishda inson omili markazda bo'lishi lozim. Til nafaqat tizim, balki inson tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy tajribasining ifodasidir. Shu bois til siyosati inson ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur. Umuman olganda, tilni rivojlantirish strategiyasi yagona modelga emas, balki global tajriba va milliy lingvokulturologik asoslarning uyg'unlashuviga tayanishi kerak. Ingliz modelining texnologik ustunligi, ispan modelining madaniy jozibadorligi va o'zbek modelida ham milliy-madaniy yondashuv birgalikda qo'llanilgandagina samarali natija beradi.

XULOSA.

So'ngi tadqiqotlar global til siyosati zamonaviy dunyoda tobora murakkablashib borayotgan ko'p qatlamli fenomen ekanini ko'rsatadi. Til endilikda faqat aloqa vositasi emas, balki geosiyosiy ta'sir, madaniy legitimatsiya, iqtisodiy raqobatbardoshlik va raqamli ustunlikni belgilovchi strategik resurs sifatida chuqur namoyon bo'lmoqda. Ushbu jihat tilni davlat siyosati va global rivojlanish strategiyalarining ajralmas tarkibiy qismiga aylantiradi.

Kuzatishlar ingliz, ispan va o'zbek tillarining global tizimdagi o'rni turlicha bo'lsa-da, ularning bir-biridan andaza oladigan jihatlari, xususan, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi modellarga asoslanib rivojlanishida namunaviy xarakterga ega ekanligini asoslaydi. Ingliz tili ilm-fan, texnologiya va iqtisodiyot orqali global standartni shakllantiruvchi kuch sifatida ustunlik qilsa, ispan tili madaniy jozibadorlik va ijtimoiy ta'sir orqali kengayib bormoqda, shu usulda global auditoriya bilan emotsional va identifikatsion bog'lanish hosil qilmoqda. O'zbek tili esa milliy-madaniy o'zlik, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarning asosiy tashuvchisi sifatida tobora dunyo sahnasiga chiqib, hozirda global kommunikativ makonga integratsiyalashuv bosqichiga jadal kirib bormoqda.

O'zbek tilini kelajakda rivojlantirish jarayoni bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda olib borilishi zarur: a) ilmiy diskursni kengaytirish, b) raqamli platformalarda faol ishtirok etish, c) tarjima va bilim almashinuvi tizimini mustahkamlash, hamda d) madaniy diplomatiya orqali global auditoriyaga chiqish.

Bu jarayon tilni faqat saqlash emas, balki uni zamonaviy kommunikativ tizimda faol ishtirok etuvchi dinamik vositaga aylantirishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, til siyosatida inson omili markaziy o'rinni egallashi lozim. Tilning rivoji uning texnologik yoki siyosiy qo'llanishi bilan emas, balki inson tafakkuri, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilgandagina barqaror va samarali bo'ladi. Shu ma'noda, til siyosati insoniyatga foydali xizmat qilish g'oyasini saqlagan holda global integratsiyani ta'minlashga qaratilishi zarur.

Demak, zamonaviy til siyosati asosan uch tamoyilga ko'ra ish yuritishi lozim: 1) global kommunikativ tizimga integratsiyalashuv; 2) milliy-madaniy o'zlikni saqlash va rivojlantirish; 3) raqamli va texnologik transformatsiyaga jadal moslashuv.

Aynan shu uch omil uyg'unligi tilning nafaqat mavjudligini, balki uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ham belgilaydi. Shu bois tilni rivojlantirish strategiyasi milliy chegaralar bilan cheklanib qolmasdan, global maydon bilan faol o'zaro aloqada bo'lishi kerak. Faqat shundagina til zamonaviy dunyoda o'zining haqiqiy salohiyatini namoyon eta oladi va insoniyatning umumiy madaniy hamda intellektual rivojiga hissa qo'shuvchi kuchga aylanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/385>
2. Saida Mirziyoyeva Oksfordda o'zbek tilini o'rganish dasturining ochilish marosimida ishtirok etdi. https://uza.uz/uz/posts/saida-mirziyoyeva-oxfordda-ozbek-tilini-organish-dasturining-ochilish-marosimida-ishtirok-etdi_771480
3. Baker, M. (2018). Translation and conflict: A narrative account. Routledge.
4. Baxronova, D. (2021). Words and culture: Language, globalization and interculturality. Religación.
5. Baxronova, D., & Abduraimov, S. (2022). The influence of national-cultural worldview on metaphor construction.
6. Bourdieu, P. (1991). Language and symbolic power. Harvard University Press.
7. Castells, M. (2010). The rise of the network society. Wiley-Blackwell.
8. Crystal, D. (2003). English as a global language. Cambridge University Press.
9. Del Valle, J. (2013). A political history of Spanish: The making of a language. Cambridge University Press.
10. Floridi, L. (2014). The fourth revolution. Oxford University Press.
11. Graddol, D. (2006). English next. British Council.

12. Hall, S. (1997). Representation: Cultural representations and signifying practices. Sage.
13. Hjarvard, S. (2013). The mediatization of culture and society. Routledge.
14. Instituto Cervantes. (2025). El español en el mundo. https://cvc.cervantes.es/lengua/anuario/anuario_25/el_espanol_en_el_mundo_anuario_instituto_cervantes_2025.pdf
15. Kachru, B. (1992). The other tongue: English across cultures. University of Illinois Press.
16. Landau, J., & Kellner-Heinkele, B. (2001). Politics of language in the ex-Soviet Muslim states. University of Michigan Press.
17. Mahmudov N. O‘zbek tilining mo‘tabar maqomi. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2022. – № 5. – B. 3–8.
18. Mar-Moliner, C. (2000). The politics of language in the Spanish-speaking world. Routledge.
19. Montgomery, S. (2013). Does science need a global language? University of Chicago Press.
20. Moreno Fernández, F. (2009). La lengua española en su geografía. Arco Libros. – 512 p.
21. Nye, J. (2004). Soft power: The means to success in world politics. Public Affairs. – 191 p.
22. Pennycook, A. (1998). English and the discourses of colonialism. Routledge. – 252 p.
23. Phillipson, R. (1992). Linguistic imperialism. Oxford University Press. – 376 p.
24. Phillipson, R. (2003). English-only Europe? Challenging language policy. Routledge. – 252 p.
25. Rahmatov L. Dunyo mamlakatlari: Avstraliyadan Hindistongacha. Ilmiy-ommabop qo‘llanma. – T.: “Yangi kitob” nashriyoti. – 2019. – 848-b. ISBN 978-9943-5544-8-1.
26. Sharifian, F. (2017). Cultural linguistics. John Benjamins.
27. Velázquez, V., & Bakhronova, D. (2024). Sociocultural approach. CIENCIA Ergo-Sum.